

O'zbekistonda Turizm Sohasining Shakllanishi Va Rivojlanishi (1991-2021 Yillarda, Farg'ona Vodiysi Misolida)

Mamatazizov Faryozbek Paxlavon o'g'li¹

Annotatsiya: O'zbekistonda tarixiy-ma'daniy tuzim rivojlanishining asosiy sohalari, salohiyati va turizmni rivojlanishining asosiy omillari. Shu bilan birgalikda O'zbekistonda turizm rivojlanishining hozirgi xolati. O'zbekistonga kelgan chet el fuqorolari sonining mamlakatlar bo'yicha taqsimoti. O'zbekistonda tarixiy-ma'daniy turizm darajasini taxlili olib boriladi.

Kalit so'zlar: UNWTO, turizm, turizm ma'daniyati, mehmonxona, turistik firmalar, sayyohlar, ichki turizm, Ipak va ziravorlar, info-turlar, ijtimoiy guruhlar, jaxon turizimi.

KIRISH

O'zbekiston bugungi kunda boy turizm salohiyati va turizmni rivojlantirishning barça imkoniyatlariga to'la-to'kis ega bo'lgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Butunjahon turistik tashkiloti a'zosi sifatida dunyoga mashhur davlat sifatida ildamlab bormoqda shuningdek ushbu tarmoqqa alohida e'tibor qaratilmoqda. Butunjaxon sayyoxlik tashkiloti (UNWTO) tomonidan berilgan statistikaga ko'ra, turizm jaxon tovarlar va xizmatlar eksportida to'rtinchi, daromad keltirish bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Turizm dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri xisoblanadi. Jaxon ichki yalpi maxsulotidagi xissasi 10 foizni tashkil etadi. O'zbekiston Butunjaxon turizm va sayoxatlar bo'yicha kengashi (BTSQ) ning baxolariga ko'ra, sayyoxlar kelishi borasida dunyo mamlakatlari orasida 2018 yilda 76-o'rinda, uning xissasiga umumiy sayyoxlar oqimining 0.2 foizi (bu boradagi O'zbekiston salohiyati 2.2 foiz) to'g'ri keladi.²

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimiz olimlari va tadqiqotchilari I.To'xliyev, R.Amriddinova, Sh.Ro'ziyev, O.Xamidov, N.Ibadullayev F.Aziztoyeva, B. Mamatov va boshqalar boshqalarning ilmiy asarlarida turizm sohasini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlariga doir ko'plab masalalar yoritilgan lekin, tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishga oid ayrim masalalar yetarlicha o'rganilmaganligi bois ba'zi muammolar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xususan, N.To'xliyev: "Turizm (frans. tour – sayr, sayohat) sayyohlik-sayohat (safar) qilish, faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarga borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmaydigan holda jo'nab ketishi tushuniladi" deb hisoblaydi.

Tadqiqotchi Sh. Ro'ziyev tarixiy-madaniy turizmning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda yaratiladigan konsepsiyalar, metodlar va turistik faoliyat subyektlarining o'zaro integratsiyasini amalga oshiruvchi indikativ boshqaruv metodikasini yoritib bergan. Iqtisodchi olim O.H.Xamidovning e'tirof etishicha "Turizm murakkab, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u ... boy va xilma-xil tabiat, madaniy-tarixiy obyektlardan tabiat muhofazasi va ekologik xavfsizlikni ta'minlash asosida tomosha qilish orqali samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilaydi."

¹ Andijon iqtisodiyot va qurilish Instituti, "O'zbek tili va ijtimoiy fanlar" kafedrasida assistenti, Andijon Davlat Universiteti tayanch doktoranti, Andijon, O'zbekiston

² www.unwto.org



Davlatimiz raxbarining 2018 yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-sonli farmoni³ xamda 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari⁴ yurtimizda turizmning barcha yo‘nalishlari shu bilan birgalikda tarixiy-ma‘daniy turizm, ziyorat turizmini rivojlantirish, kirish turizmi bo‘yicha turistlar oqimini ko‘paytirish, mamlakat tarixiy-ma‘daniy salohiyatini dunyoga namoyon etishda xamda turizm ma‘daniyatini shakllantirish uchun asosiy tashkiliy-xuquqiy dasturamal bo‘ldi.

Mazkur tasdiqlangan xujjatlar mamlakatimizda tarixiy-ma‘daniy turizm salohiyatini namoyon qilish, turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish, shu bilan birgalikda, turizm salohiyatini keng targ‘ib qilish maqsadida innavatsion yo‘nalishlarni tadbiiq etgan xolda, mavjud tarixiy-ma‘daniy resurslardan samarali foydalanish uchun bir qator imkoniyatlar yaratdi. Turizm sohasini jadal rivojlantirishda mamlakatimizga sayoxat qilish istagini bildirgan xorijiy fuqorolar uchun viza rejimi soddalashtirilganligi, turizm infratuzilmasini jaxon talablariga mos ravishda modernizatsiyaqilinganligi, xar bir tarixiy-ma‘daniy obyektlarning ma‘lumotlari to‘liq bo‘lishi uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalardan samarali foydalanish muxim xisoblanadi.

“O‘zbekiston bo‘ylab sayoxat qil” ichki turizmni rivojlantirish dasturi esa yurtdoshlarimizning diqqatga sazovor joylarni borib ko‘rish, muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish, yurtimiz tarixi borasidagi bilim va tasavvurlarni boyitishda muxim axamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, turizm soxasida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun ayrim soliq majburiyatlarining bekor qilinishi, imtiyozli kreditlar olish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va boshqa masalalarda keng imtiyoz va preferensiyalar berilgani xam diqqatga sazovordir.

O‘zbekistonda turizmning milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish va ustuvor soha sifatida o‘rnini oshirishda quyidagi muxim vazifalarni hal etish kerak:

- ✓ turizm agentliklariga subsidiyalar ajratish;
- ✓ xavfsizlikni darajasini doimo ko‘tarib borish;
- ✓ infrastruktura va transport aloqalarini rivojlantirish;
- ✓ qog‘ozbozlikdan to‘la voz kechib, electronlashtirish;
- ✓ imidj va marketing;
- ✓ mahsulot va xizmatlarni jahon bozoriga olib chiqish;
- ✓ yangi texnologiyalardan (internet) keng foydalanish va boshqalardir.

Turizm barcha davrlarning ijtimoiy, ma‘daniy, ta‘lim va iqtisodiy soxalari, shuningdek, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi faoliyat turi xisoblanadi. Ichki turizmni rivojlantirish esa axolining bevosita o‘z tarixi, ma‘daniyati va kuch qudratiga bo‘lgan e‘tiborini yanada ortishiga asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqorolarining safar maqsadlari bo‘yicha taqsimlanishidan ko‘rish mumkunki, ularning 10,7 ming nafari o‘qish maqsadida, 54,0 ming nafari tijorat masadida, 53,5 ming nafari davolanish maqsadida, 58,8 ming nafari qarindoshlarini borib ko‘rish, 459,8 ming nafari turizm maqsadida, 4709,8 ming nafari qarindoshlarini borib ko‘rish maqsadida kelgan⁵.

2018-yilda sayyoxlik yo‘llanmalarining 98,7 % (101,7 ming dona) bevosita axoli tomonidan sotib olingan. Jumladan, Respublika xududi bo‘yicha O‘zbekiston fuqorolariga 44,8 ming dona (44 foiz), MDX fuqorolariga 9.9 ming dona (9,8 foiz), boshqa chet el mamlakatlari fuqorolariga 31,8 ming dona

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlat yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-sonli farmoni. Xalq so‘zi 2018 yil 6 fevral.

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7-fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514 sonli Qarori. Xalq so‘zi. 2018 yil 9 fevral.

⁵ www.stat.uz



(31.3 foiz) yo'llanma sotilgan. Shuningdek, chet mamlakatlar bo'yicha o'zbekiston fuqorolariga 15,2 ming dona yo'llanma sotilgan.⁶

O'zbekiston turistik xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanadigan tadbirkorlik faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratilgan. 2018-yil ma'lumotlarida Respublikada 914 ta mexmonxona, sayyoxlik ba'zasi va kempinglar xamda 983 ta turopoperatorlik faoliyati bilan shug'ullanadi⁷.

Turistlar oqimini yanada ko'paytirish maqsadida O'zbekiston dunyoning ko'plab davlatlari bilan o'zaro xamkorlikni faol rivojlantirmoqda. Shu munosabat bilan qator xorijiy mamlakatlar bilan xukumatlararo va idoralararo shartnomalar imzolangan. Turizm soxasidagi ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik juda muxim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi 1993-yildan buyon Jaxon sayyoxlik tashkiloti (UNWTO) a'zosi xisoblanadi. U dunyoning 150 dan ziyod davlatini birlashtirgan. 2004-yildan beri Samarqandda UNWTOning Buyuk Ipak yo'li bo'yicha Mintaqaviy ofisi faoliyat ko'rsatib keladi. U mazkur transkontinental yo'lda turizm rivoji qo'llab-quvvatlanishini muvofiqlashtiradi. Mamlakatimizning bu tarmoqni rivojlantirishdagi xizmatlarini e'tirof etgan xolda ushbu xalqaro tashkilotga a'zo mamlakatlar bir necha bor O'zbekiston Respublikasini mazkur tashkilotning raxbarlik organi-Ijroiya kengashiga saylangan. Kengashning 99-sessiyasi 2004-yil Samarqandda bo'lib o'tgan. Ushbu anjuman mamlakatimizda o'tkazilishi respublikada sayyoxlik jabxasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan majmuaviy chora-tadbirlar samaradorligining xalqaro xamjamiyat tomonidan yana bir karra e'tirof etilganini tasdiqladi⁸.

Zamonaviy bosqichda respublikada yirik tadbirlarning muntazam o'tkazilyotgani, ularda dunyoning ko'pgina mamlakatlari sayyoxlik sanoati vakillari to'planayotgani O'zbekiston sayyoxlik jabxasining ildamlik bilan rivojlanishini ta'minlashda muxim o'rin tutadi. Bunday xalqaro tadbirlarda sayyoxlik jabxasi mutaxassislari soxa o'sishidagi asosiy tamoyillarni muxokama etmoqda, o'zaro amaliy aloqalarni yo'lgaga qo'yishda shitob bilan xarakat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida joylashgan tarixiy-ma'daniy ob'ektlari (arxeologik obyektlar, diqqatga sazovor joylar, me'morchilik ob'ektlar, san'at asarlari) jami 7160 ta bo'lib, shu jumladan Samarqand viloyatida 1657 ta, Qashqadaryo viloyatida 1256 ta, Buxoro viloyatida 982 ta, Jizzax viloyatida 484 ta, Surxandaryo viloyatida 465 ta, Farg'ona viloyatida 370 ta, Andijon viloyatida 203 ta, Namangan viloyatida 296 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasida 352 ta, Toshkent shaxrida 319 ta, Xorazm viloyatida 311 ta, Toshkent viloyatida 264 ta, Navoiy viloyatida 169 ta xamda Sirdaryo viloyatida 32 ta ob'ektlar mavjud.

XULOSA

Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili asosida shuni xulosa qilish mumkinki, respublikamizda turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surish bo'yicha ishlarni amalga oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Umuman olganda, respublikamizni turizm sohasida yetakchi davlatlar qatorida bo'lishi uchun barcha imkoniyatlar borligini inobatga oladigan bo'lsak, bu sohaga katta hajmdagi investitsiyalarni jalb etish orqali turizm sohasidagi yangi innovatsion g'oyalarni keng targ'ib etish muhimligini belgilab beradi. Ushby sohani yanada rivojlantirish va keng yoyish uchun targ'ibot va tashviqot ishlarini jadallashtirish yana ham maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero qanchalik davlatning turizm salohiyati rivojlansa davlatning iqtisodiy qudrati ortadi.

⁶ www.stat.uz

⁷ www.stat.uz

⁸ www.unwto.org



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030 strategiyasi" to'g'risida. PF-158. 2023
2. Дмитриевский Ю.Д. Туристские районы мира. Учебное пособие.-Смоленск: СГУ, 2000
3. Ердавлетов С.Р География туризма: история, теория, методы, практика - Алматы. 2000
4. Зачиняев. П.Н., Фалькович Н.С. География международного туризма. - М.: Мысль, 1972
5. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси.-Самарқанд, 2005
6. Gulmetor F. E., Allabergenor A. A. Turizm geografiyasi: Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. — T.: «Talqin», 2004
7. "Ўзбекистонда экологик туризмни ривожлантириш концепцияси". Экология ахборотномаси. №6, 2007
8. Матёкубов У. Қишлоқ туризми унинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва ривожлантириш истикболлари,-Урганч, 2018
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2013-2016 yillarda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1957-qarori. Xalq so'zi, 2013 yil 17 aprel.
10. <http://agrotourismus-italy.html>
11. Тухлиев Н. "Ўзбекистон Республикаси иқтисодиёти" -Т. 1998
12. Усмонов М.Р.,Жумабоев Т.Ж.,Шерхолов О. Туризм географияси 1-2 қисм.-Самарқанд, 2013
13. Хайитбоев Р., Матякубов У. Экологик туризм. -Самарқанд,2010.
14. Хошимов М. Ўзбекистоннинг экологик туризми.-Самарқанд, 2012
15. Хусанбоев Б.М., Тўлаганов Л.А., Разина В.Г. "Дорогами Великого Шелкового пути" -Т. Шарк 1996.
16. Sharipov Sh. M., Fedorko V. N., Safarova N. I., Rafiqov V. A.. Geografiya.-Toshkent,2016
17. www.unwto.org
18. www.stat.uz

